UO‘K: 394(575.1)

O‘ZBEK XALQI MILLIY O‘ZLIGIGA XOS XUSUSIYATLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

A.A. Ashirov

Maqolada o‘zbek xalqi milliy o‘zligining tarixiy asoslari va etnografik jihatlari elshunoslik materiallari asosida tahlil qilingan. O‘zbek xalqi milliy o‘zligining asosi bo‘lgan o‘zbekchilik, oila va mahalla instituti, milliy qadriyatlar va ularning diniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi, hashar va boshqa jamoaviy yig‘inlar, xalq bayram va sayllarining millatga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek xalqining milliy xarakteri va mental xususiyatlari borasida ham qiziqarli etnografik materiallar tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbeklar, millat, o‘zlik, qadriyatlar, jamoa, mahalla, milliy qadriyatlar, marosimlar, an’analar, oila, tarbiya, milliy g‘urur, mentalitet.*

В статье на научной основе анализируются исторические основы национальной идентичности узбекского народа и её этнографические особенности. На основе этнографических материалов раскрываются истоки узбекской идентичности, роль семьи, соседской общины, национальных и религиозных ценностей, традиций хашара, народных праздников и других общественных институтов. Особое внимание уделяется национальному характеру и ментальным особенностям узбекского народа.

Ключевые слова: *узбекский народ, национальная идентичность, этнография, национальные ценности, семья, соседская община, традиции, национальный характер, менталитет.*

KIRISH

XX asr o‘zbeklar tarixi va milliy o‘zligida katta o‘zgarishlar davri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, 2016-yil kuzida boshlangan tarixiy o‘zgarishlar – Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida milliy qadriyatlar va o‘zlikni teran anglash, o‘zbeklarning nafaqat o‘tmish tarixi, balki bugungi kuni ham buyuk ekanligi hamda uning qadrini o‘z joyiga qo‘yish borasida Prezidentimiz boshchiligida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, o‘zbek degan millat dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Shubhasiz, bu borada o‘zbeklarga xos milliy mental va etnomadaniy xususiyatlarni o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Agar dunyo hamjamiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turli millatlar bilan bog‘liq nomlar, masalan, “ingliz oliyjanobligi”, “nemis ruhiyati”, “rus xarakteri”, “fransuz viqori va kiborligi”, “yapon irodasi” kabi tushunchalar keng ommalashganligini ko‘rish mumkin. Qolaversa, dunyoda “xitoy oshxonasi”, “nemis mashinasi”, “yapon mo‘jizasi”, “hind kinosi”, “koreys va turk seriallari” kabi tushunchalar ham keng tarqalgan.

So‘zimiz avvalida shuni ham aytish kerakki, “o‘zbek” nomi oddiy etnonim emas, balki o‘zining yuksak madaniyati, adabiy va davlatchilik an’analariga ega bo‘lgan millat nomidir. Xorijda ko‘p hollarda ushbu nomga yo‘ldosh sifatida “Sharq renessansi”, “buyuk kashfiyotlar”, “mehmondo‘stlik an’anasi”, “mahalla”, “oshxona madaniyati”, “milliy liboslar” kabi tushunchalarni qo‘llash an’anaga aylangan. Lekin keyingi vaqtda jahon ommasi bizni “o‘zbek kurashi”, “o‘zbek boksi”, “o‘zbek futboli”, “o‘zbek shaxmati”, “o‘zbek palovi”, “o‘zbek migranti” kabi tushunchalar orqali ham eslamoqda [1. Б. 28]. Xo‘sh, bu o‘rinda o‘zbek xalqiga xos milliy o‘zlik asosini qanday anglash mumkin, degan savol paydo bo‘ladi. Aynan mazkur savolga javob berish maqsadida biz ushbu maqolada o‘zbek xalqi milliy o‘zligining tarixiy asoslari va uning shakllanish tarixi, o‘ziga xos jihatlarini elshunoslik materiallari orqali tahlil qilishga harakat qildik.

MATERIAL VA USULLAR

Maqolani tayyorlash jarayonida etnologik tadqiqotlarda keng ommalashgan kuzatuv, tarixiy va qiyosiy tahlil usullari bilan birga tizimli-funksional tahlil, statistik-qiyosiy solishtirish, etnografik rekonstruksiya, hududiy-geografik hamda xronologik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbeklar o‘zining qadimiy davlatchilik tarixi, noyob shaharsozlik an’analari, yozuv madaniyati va milliy qadriyatlari bilan Turon sivilizatsiyasi hamda kishilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan [2. Б. 87].

Shubhasiz, o‘zbek xalqiga xos milliy o‘zlikni tushunish uchun uning etnik tarixi va etnomadaniyatini yaqindan bilish joiz. Tarixdan ma’lumki, o‘zbeklarning etnik tarixi birmuncha murakkab kechgan bo‘lib, mintaqadagi boshqa xalqlarga nisbatan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi [3. Б. 463; 4. Б. 680]. O‘zbeklarning etnik asosini qadimdan o‘troq holda yashab kelgan aholi hamda turli davrlarda Turon mintaqasiga kirib kelgan ko‘chmanchi chorvador etnik guruhlar tashkil etadi. Boshqacha aytganda, o‘zbeklar mintaqadagi boshqa turkiy xalqlardan o‘troq madaniy merosga ko‘proq egaligi bilan farq qilsa, tojiklardan esa tili va etnik kelib chiqishi jihatidan ajralib turadi.

Yuz yilliklar davomida qadim ajdodlarimiz etnik o‘zlikni anglash asosida avval turkiylik (turkiy xalq ekanligi) va keyinchalik o‘zbeklik tushunchasi, diniy o‘zlikda islom dini (sunniylik mazhabi) hamda etnolingvistik o‘zlikni anglashda turkiy til umumiyligi asosida o‘zbek milliy o‘zligi shakllangan.

Xullas, o‘zbeklarga xos milliy o‘zlik negizini qadim ajdodlarimizning tarixiy tajribalari, milliy ruhiyati, madaniyati, xalqona qadriyatlari va marosimlari tashkil etadi. Shuningdek, o‘zbekona bag‘rikenglik, milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi, sharqona bosiqlik, mahalla hamda qo‘ni-qo‘shnichilik an’analari bilan birga hotamtoylik, mehmondo‘stlik, o‘zaro hamkorlikka moyillik, nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik kabi fazilatlar ham o‘zbek o‘zligini tashkil etadi.

Turon mintaqasi asosan tekislik va cho‘llardan iborat, keskin kontinental iqlimli, geografik hududda joylashganligi, qahraton qishning jazirama issiq yoz bilan almashinishi, bahor hamda kuzning shiddat bilan kelishi va ketishi xalqimizning fe’l-atvorida aniqlik hamda lo‘ndalik, qaynoq mehr, qattiqqo‘llik va intizomni tarkib toptirgan.

O‘zbeklarning o‘troq dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati merosiga ega xalq ekanligiga ona tabiatning muqaddas unsurlari – yer, suv, havo hamda olovga bo‘lgan cheksiz hurmat, ularni e’zozlash bilan bog‘liq turfa xil urf-odat va marosimlar, dehqonchilik va hunarmandchilikka oid an’analar, yuz yilliklar davomida islom sharoitidan qat’i nazar, o‘zbek xalqi turmush tarzi va urf-odatlarida saqlanib kelayotgan son-sanoqsiz tabiat hamda ajdodlar e’tiqodlari izlarida yaqqol namoyon bo‘lgan. Shuningdek, xalqimizning yozma meros, badiiy adabiyot va san’atga bo‘lgan qiziqishi, Navro‘z, Mehrjon, Sada, Gul sayllari, Hosil bayrami kabi bayram hamda sayllarda ham aks etgan [5. Б. 53].

Xalqimizning turkiylardan boshlanganligi (turkiylikka xos jangovarlik, mardlik, lafzga halollik) milliy xarakterda keng tarqalgan bag‘rikenglik, saxovatpeshalik, hojatbarorlik kabi xislatlarda o‘zining yorqin ifodasini topgan. Buni, ayniqsa, o‘zbeklarning to‘y-tantanalarga o‘ta o‘chligi, yillar mobaynida yig‘ib-terib, elga tarqatishdan zavq-shavq olishi, aza va yo‘qlov marosimlarini uyushgan holda o‘tkazishi, bola tug‘ilishidan tortib to motam marosimlarigacha bo‘lgan barcha urf-odatlarda keng jamoatchilik hamda mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo‘lishi kabi udumlarda o‘z aksini topgan. Shuningdek, milliy o‘zligimizda turkiylarga xos jihatlar ma’naviy madaniyatimiz, “chillak”, “chavg‘on”, “ko‘pkari”, “kurash”, “beshtosh”, “oshiq urush”, “oshiq” kabi milliy o‘yinlar, “quloqtishlar”, “beshikkerti”, “qalin” “to‘qqiz” kabi rasm-rusum va udumlar, qolaversa, otga bo‘lgan o‘ziga xos mehr hamda ushbu jonzotning motam marosimlarda ishtiroki bilan bog‘liq udumlarda yorqin ifodasini topgan.

O‘zbek xalqi kundalik hayotida mavjud bo‘lgan tartib-qoidalar xalqona an’analar, islom dini va shariat tamoyillari asosida shakllangan, albatta. Odobaxloq qoidalariga rioya qilish oiladan boshlangan. Yoz paytlarida, ayniqsa, barvaqt turilgan. Bolalar bet-qo‘llarini yuvib, kattalarga salom bergan. Kattalar, ayniqsa, mehmonlarning qo‘liga suv quyish va sochiq tutish odati bolalarga yoshlikdan o‘rgatilgan.

Qadimdan o‘zbeklarda dasturxon oilaning ko‘rki va to‘kin-sochinlik ramzi hisoblangan. Uning atrofida yig‘ilib o‘tirish ham ma’lum odob doirasida bo‘lgan. Dasturxonga hurmat bajo keltirish odatga aylangan. Uni “Bismilloh” bilan yozib ochadilar va so‘ngida o‘tganlar haqqiga duoi fotiha qilib, tiriklarga sihat-salomatlik, dasturxonga qut-baraka tilab, yig‘ishtiriladi.

Yuqorida keltirilgan barcha tartib-qoidalar va odatlar yoshlarga oilada o‘rgatilgan. Bolalarning odobi va axloqiy darajasi oiladagi tartib-intizom hamda an’analarning qat’iyligiga bog‘liq bo‘lgan. Shuningdek,

yoshlarni tarbiyalashda jamoaning o‘rni ham katta bo‘lgan. Jamoaning har bir a’zosi mehmondorchilik, ma’raka va boshqa joylarda yoshi hamda mavqeyiga qarab joy egallagan. Kattalar va hurmatli kishilar oldinda borgan va davra to‘riga taklif qilingan.

O‘zbek oilasida farzand tarbiyasi jarayonida unga milliy madaniyat va qadriyatlar singdiriladi. Odatda farzand o‘zbekcha odob, muloqot va xarakterni oilada bobo-buvi, ota-ona hamda katta yoshli qarindoshlardan o‘rganadi. Bu esa keyinchalik shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o‘zbeklarda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol keng tarqalgan.

Har bir o‘zbek doimo oilasi va yaqinlari uchun qayg‘uradi, uning manfaatlari yo‘lida kurashadi. Oila muhiti bolaga nafaqat ota-onasi va yaqinlarini hurmat qilish, balki shajarasi, urug‘i, mahallasi va millatini sevishni ham o‘rgatadi. Ushbu muqaddas tuyg‘u “Men kimman?”, “Qaysi millatga mansubman?” degan o‘zlik bilan bog‘liq savollarga javob berishda qo‘l keladi. Ya’ni, milliy o‘zlikning ma’naviy-axloqiy asoslari va ijtimoiy tuyg‘ular oilada ota-ona hamda bobo-buvilar ko‘magida shakllantiriladi.

O‘zbek oilasida ota-ona, farzandlar, aka-uka va singillar hamda boshqa yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarda nozik parda mavjudligini anglash joiz. Ayniqsa, ota va qiz, ona va o‘g‘il, qaynota va kelin, kuyov va qaynona o‘rtasidagi munosabatlarda aynan mana shu parda – o‘zbekcha hayo, sharm, ibo kabi axloqiy me’yorlar ham o‘zbekchilikning muhim jihatlari hisoblanadi. Qolaversa, yoshi ulug‘lar yoshlarga doimo yaqin qarindoshlar, do‘stlar va qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida hurmat, mehr-oqibat, ishonch hamda hamjihatlikka amal qilish odobini singdiradi.

Xullas, oilada onalar milliy tarbiya va xalqona an’analarni singdiruvchi, farzandlarga o‘zbek madaniyati hamda qadriyatlarini o‘rgatuvchi kishi deb qaralsa, otalar oilaning huquq va manfaatlari himoyachisi, uyni har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi o‘ziga xos ta’minotchisi sanaladi. Shu sababli o‘zbeklarda oila nafaqat shaxsiy hayotning asosi, balki jamiyatda ijtimoiy va milliy barqarorlikning muhim ustunlaridan biri sifatida qadrlanadi.

O‘zbek xalqi ajdodlari orasidagi milliy tarbiya haqida gap ketganda, qadimgi sug‘dlardagi tartib bilan bog‘liq ma’lumotlarga e’tibor qaratish kerak. Sug‘dlarda oila va oilaviy qadriyatlar juda muhim hisoblangan. Oilada ota-onaning hurmati yuqori bo‘lib, ularga hamisha hurmat ko‘rsatilgan. Masalan, qadimgi sug‘d nomalariga ko‘ra, turmushga chiqqan qiz o‘z onasiga xat yozar ekan, unga “O‘zining qizi, ozod ayol Mi(wnay)dan aziz (onasi) Chatisga, baraka va hurmat. Sizni sog‘lom va xotirjam ko‘rgan kishi uchun yaxshi kun bo‘lardi va (men uchun) o‘sha kun sizni sog‘-salomat ko‘rishimiz uchun eng yaxshi kun bo‘lardi. Men sizni ko‘rishni juda xohlayman” mazmunida murojaat qilgan [6. Б. 46]. Ushbu nomaning muhim jihati shundaki, unda onaga bo‘lgan hurmat va sog‘inch yuksak darajada ifoda etilgan.

O‘zbek oilasida onalar hamisha farzandlari uchun eng birinchi murojaat qilinadigan kishidir. Boshqa millatlardan farqli tarzda, o‘zbeklarda hech qachon onadan oldin otaga murojaat qilinmaydi, balki ona orqali otasiga barcha gaplari yetkaziladi.

Farzand tarbiyasi masalasi qadimdan ajdodlarimiz hayotida muhim vazifa hisoblangan. O‘zbeklarda bola tarbiyasi jarayonida diniy (islomiy) va milliy tarbiya o‘zaro uyg‘unlashgan holda olib borilgan. Jumladan, bola qulog‘iga azon aytilib, ism berilgan, aqiqa va sunnat to‘yi marosimlari o‘tkazilgan, islomiy tarbiya bilan birga ilm o‘rgatilgan. Farzandning har tomonlama kamolga yetishi, ya’ni ham jismonan, ham ruhan va ham aqlan tarbiya olishi, kasb-hunar hamda ilm o‘rganishi, asosiysi, ota-onaga hurmat va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi islom dinidagi eng muhim vazifalar hisoblangan.

O‘zbeklarga xos milliy o‘zlikning muhim tomonlaridan biri – muomala etiketidir. Dastlab oila va yaqin kishilar o‘rtasidagi muloqot orqali o‘zbekona lutf o‘rgatiladi. Jumladan, kattalarga “Siz” deb murojaat qilish, buyruq ohangida emas, balki iltifot bilan gapirish, doim rost so‘zlash, muhtojlarga yordam berish kabi ezgu amallar ham oilada o‘rgatiladi va bular milliy ruhni shakllantiradigan fazilatlar sanaladi.

O‘zbek xalqi ajdodlari jamoa bo‘lib yashagan, xalqimizda boshqa yurtlarda uchramaydigan o‘ziga xos jamoa tizimi – “mahalla” va jamoa instituti bo‘lgan.

Mahalla deganda katta yoki bir necha oilalarni o‘ziga birlashtirgan hududiy birlikdagi jamoa tushunilgan. Mahalla – fuqarolarning tashabbusi bilan tashkil etilgan tarixiy jamoa. Bir necha o‘n asrlardan buyon o‘zbeklar o‘zining ma’lum tartib-intizomi va qonun-qoidalariga rioya qilgan holda mahallalarda yashab kelmoqda. Shuning uchun ham mahalla bu – faqatgina joylashuv nuqtayi nazaridan emas, balki o‘ziga xos an’analari, qadriyatlari, ichki qonun-qoidalari hamda tartib-intizomi asosida shakllangan, jamoaviy xususiyat kasb etadigan ijtimoiy birlashmadir. O‘zbeklarda yaxshi qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari va jamoada biror-bir kishi qiyin vaziyatga tushib qolganda, uni qo‘llab-quvvatlash odati an’anaga aylangan.

Tarixdan ma’lumki, kishilik tarixida oiladan keyin jamoa birlashmasi tarzida mahalla shakllangan [7. B. 12.]. U fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladi, aholining muhtoj qatlamlariga yordam beradi. Mahalla oqsoqollari uy-joylarning oldi-sotdisi, to‘y-ma’raka marosimlarini uyushtirish va mahallalardagi nizolarni bartaraf etish ishlariga boshchilik qilgan. Har bir mahallaning o‘z guzarida choyxonasi bo‘lib, u mahallaning ijtimoiy-madaniy markazi hisoblangan

[8. Б. 135]. Shu bilan birgalikda har bir mahalla o‘zining masjidi va bozoriga ega bo‘lgan, ushbu maskanlar avvallari choyxona bo‘lmagan joylarda ijtimoiy markaz sifatida faoliyat olib borgan.

Mahalla jamiyat hayotida faqatgina turar-joy hududi bo‘lib qolmay, balki kishilarning o‘zligini anglashi va ijtimoiy mansublikni belgilashda muhim o‘rin tutgan. Mahalla odamlar uchun nafaqat yashash joyi, balki ijtimoiy aloqalar va shaxsning o‘zligini shakllantiruvchi maskan vazifasini ham o‘tagan. Jumladan, mashhur tarixchi va sayyoh Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiy as-Sam’oniy o‘zining “Kitob al-ansob” (“Nasabnoma”) asarida Turon hududidan yetishib chiqqan mashhur shaxslar haqida ma’lumot berib, ularning taxallus va nomlarini e’tirof etishlarida tug‘ilgan mahallalarining nomi bilan uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Xususan, ushbu alloma Farg‘ona vodiysining mashhur shaharlaridan biri bo‘lgan Marg‘ilondagi Qandob (G‘andob) haqida qayd etib, Abu Muhammad Umar ibn Ahmad ibn Abulhasan al-G‘andobiy al-Marg‘inoniyning aynan ushbu mahalladan ekanligini urg‘ulab, uning faoliyati haqida muhim ma’lumotlarni keltiradi. O‘rta asrlarda mahalla shaxsning o‘zligini anglash va jamiyatdagi o‘rnini belgilashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ushbu davrda mahalla faqat turar-joy emas, balki ijtimoiy, madaniy va diniy jamoatning ajralmas qismi sifatida kishilarning hayoti hamda o‘zaro munosabatlariga ta’sir ko‘rsatgan.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida mahallalar ayniqsa ravnaq topgan. O‘tmishda mahalla shaharcha ahamiyatiga ega bo‘lganligini quyidagi baytdan ham bilish mumkin:

Shaharlar otini mahallot etib,
Bo‘ldi chu yuz shahar Hiri ot etib.

“Mahalla – shahar ichidagi shaharcha” degan go‘zal o‘xshatish hazrat Mir Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) asarida keltirilgan [9. B. 74]. Hirot shahri shaharcha ahamiyatiga ega bo‘lgan yuz mahalladan tarkib topgan. Ko‘chalar kesishgan, tutashgan joylar markaz hisoblanib, u yerda guzar joylashgan. “Guzar” atamasi esa “kesib o‘tish joyi” degan ma’noni anglatgan.

O‘zbeklar doimo mahalla yoki jamoada kimdir yordamga muhtoj bo‘lib qolsa, imkon qadar ko‘mak berishga intiladi. Buni mahalla hayoti, xususan, hashar kabi ixtiyoriy jamoaviy ishlarda yaqqol kuzatish mumkin. Zero, jamoaviy faollik ijtimoiy birdamlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Mahalla ahli ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qaysi jamoa hududida yashamasin, uning o‘sha jamoaga mansubligini bildiradi. Jamoaning har bir a’zosi mehmondorchilik, ma’raka va boshqa marosimlarda yoshi hamda mavqeyiga qarab joy egallagan. Yoshi ulug‘, hurmatli insonlar oldinda borgan va davra to‘riga taklif qilingan.

O‘zbekistonda barcha hayotiy ishlar bilan shaharda mahalla, qishloqda esa qishloq va ovul jamoalari shug‘ullangan. Mahalla va qishloq jamoasini jamoa yig‘inida saylangan oqsoqol (Xorazmda – yoshulli) boshqargan. Ijtimoiy hayot masjid, choyxona va bozorlarda mujassamlashgan, ularda asosan erkaklar ishtirok etgan, jamoaga ma’lum bir mahalla yoki qishloqda yashovchilar birlashgan. Kishining e’tiqodi, millati va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, u yoki bu jamoa hududida yashashi uning o‘sha jamoaga mansubligining yagona belgisi hisoblangan. Jamoadagi kishilar kasb-hunari va mavqeyidan qat’i nazar, hashar hamda marosimlarga qatnashishlari zarur bo‘lgan, aks holda bunday shaxs xalq nazaridan qolgan.

O‘zbek xalqi oila qurish an’analariga rioya qilish, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo‘lmish tomon xususida ma’lumotga ega bo‘lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o‘rni hamda obro‘-e’tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo‘lmish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo‘lsa, ularning qarindosh-urug‘lari, avlodning jamoadagi mavqeyi va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda hal qiluvchi omil vazifasini o‘taydi. Farzandlarni yaxshiga qo‘shish, bu borada xato qilib qo‘ymaslikda jamoa, jamiyat ra’yi va ko‘pchilikning fikri muhim rol o‘ynaydi. Shu bois xalq orasida “G‘arb qonunlar, Sharq urf-odatlar bilan boshqariladi” degan naql keng tarqalgan [10. B. 192].

Darhaqiqat, Sharq, shu jumladan, o‘zbeklarda ham ko‘plab urf-odatlar qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida yoxud keng jamoatchilik o‘rtasida o‘tkaziladigan barcha marosimlarda mahallaning bosh-qosh bo‘lishi, qo‘ni-qo‘shnichilik an’analari, oila-turmushdagi ko‘plab urf-odatlarga qonun darajasida amal qilinadi va jamoaga asosiy e’tibor beriladi. O‘zbeklar orasida keng tarqalgan jamoatchilik an’analari chuqur tarixiy ildizlarga ega. Bunday tartibotning ibtidosi mintaqa xalqlarining eng qadimiy yozma manbasi hisoblangan “Avesto”da batafsil bayon etilgan [11. B. 45]. Shuningdek, bir qator yozma va arxeologik manbalarda mintaqaning qadimiy shaharlari aholisi orasida jamoalar faoliyat ko‘rsatganligi, faqat turmushdagina emas, balki ishlab chiqarishda ham jamoa asoslari mavjudligi qayd etilgan. O‘rta asrlarda jamoa faqat jamoaviy asoslardagina sug‘orish tizimini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash, binobarin, dehqonchilik bilan shug‘ullanish mumkin bo‘lgan qishloq, shuningdek, shahar aholisi uchun ham o‘zining oldingi ahamiyatini saqlab qolgan, barcha udum hamda marosimlar qishloq va shaharlarda mahalla jamoalarining tashabbusi bilan o‘tkazilgan.

O‘zbeklarda jamoaviy o‘zaro yordam an’anasi bo‘lib kelgan hashar, mehmondo‘stlik, kattalarni hurmat qilish va bir qancha odatlar, marosimlar jamoaning qatnashuvi asosida o‘tgan. Hasharning jamoa ishlarini bajarish, qo‘ni-qo‘shnichilik va qavm-qarindoshlik doirasida o‘tkaziladigan ko‘rinishlari bo‘lgan. Hasharning bunday turlari ixtiyoriy o‘zaro yordam bo‘lgan.

Hasharning yana bir turi davlat miqyosida o‘tkazilib, unda oldinlari hukmdor va mulkdor yerlariga suv chiqarish uchun ariq qazilgan, qo‘riq ochilgan, hosilni yig‘ishtirish hamda qurilishlar amalga oshirilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda bahorda, Navro‘z bayrami arafasida o‘tkaziladigan hasharda jamoat joylarini tozalash, yangi ko‘chatlar ekish va daraxtlarga shakl berish, oqlash kabi yumushlarni ommaviy ravishda bajarish an’anaga aylangan. Kichik ko‘lamdagi hasharni hasharboshi (ariq qazilsa – mirob yoki qishloq oqsoqoli) boshqargan. Katta va uzoq muddatda bajariladigan hasharlar maxsus ishboshilar (kanal qazilganda – ariq oqsoqoli) nazoratida o‘tkazilgan. Jamoa ishlari bajariladigan hashar O‘zbekistonning barcha qishloq va shaharlarida keng ko‘lamda o‘tkazilgan. Jamoa hashari bilan ko‘prik, masjidlar qurish va ta’mirlash, ariq-zovurlar qazish, ularni tozalash, mozorlarni obodonlashtirish kabi ishlar bajarilgan. Katta hasharlar tantanalar bilan boshlanib, tugallanishi ko‘tarinki ruhda yakunlangan.

Oilaviy hashar esa ko‘pincha imoratni tiklash ishlarida qavm-qarindoshlar ishtirokida bajarilgan. Hashar mahalla va qishloq jamoa a’zolarini birlashtirgan, ularni yelkadoshlik hamda uyushqoqlikka da’vat etgan. Umuman olganda, hasharning bir nechta turi mavjud bo‘lgan: jamoa yumushlarini bajarish, qo‘ni-qo‘shnichilik, qavm-qarindoshlik va umummilliy miqyosda o‘tkazilgan va o‘zaro yordam tariqasida amalga oshirilgan.

Xalqimizda hasharning avloddan-avlodga ma’naviy qadriyat sifatida o‘tib borishi o‘zbeklar jamiyatidagi jamoaviy totuvlik va ma’naviy o‘zaro bog‘liqlikni mujassam etadi. U qadriyatning rivojlanishi sharoitida ham barqarorligidan dalolat beradi hamda ijtimoiy hamjihatlik va ma’naviy o‘ziga xoslikni tarbiyalashda jamoaviy harakat muhimligini tasdiqlaydi.

XULOSA

O‘zbek xalqiga xos etnomadaniy jihatlar asosida jamoaviylik, mahalla instituti, bag‘rikenglik, xalq donishmandligi, mehmondo‘stlik, iymon-e’tiqodda sodiq bo‘lish, fidoyilik, o‘zgaga yordam berish kabi ko‘plab fazilatlar mujassamlashgan. Yuz yilliklar davomida o‘zbek jamiyatida kuchli jamoaviy ong va axloqiy qadriyatlar ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelmoqda. Aynan mazkur omillar zamonaviy o‘zbek jamiyatida birdamlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Jamoaviy an’analar orasida mahalla, jamoa instituti bilan birga qo‘shnichilik munosabatlari muhim o‘rin tutgan. Jumladan, o‘zbeklarda jamoaning biror-bir kishisi qiyin vaziyatga tushib qolganda, qo‘llab-quvvatlash hamda o‘zaro yordam berish odati keng tarqalgan. O‘zbeklar doimo mahalla yoki jamoada kimdir yordamga muhtoj bo‘lib qolsa, imkon qadar yordam berishga harakat qiladi. Bunday holatni mahalla hayoti, xususan, hashar kabi ixtiyoriy jamoaviy ishlar orqali yaqqol kuzatish mumkin. Bunday jamoaviy faollik o‘z navbatida, ijtimoiy birdamlik va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. *Аширов А*. Ўзбекчилик миллий ифтихорми ёки тараққиётга тўсиқ? // Vatan. – 2025. – № 1. – Б. 29–33.

2. *Асқаров А*. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 2023. – 360 б.

3. *Шониёзов К*. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 463 б.

4. *Асқаров А*. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston, 2015. – 680 б.

5. *Аширов А*. Ўзбек миллий менталитети ҳақида баъзи мулоҳазалар // “Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих” мавзусидаги республика илмий-назарий семинари материаллари, – Тошкент, 2004. – Б. 53 – 56.

6. *Исҳоқов М*. Унутилган подшоликдан хатлар. –Тошкент: Фан, 1992. – 57 б.

7. *Бўриев О., Саидов Б.* Маҳалла – миллий тарихий институт. – Тошкент, 2012. – 212 b.

8. *Скайлер Ю.* Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Гулжага саёҳат қайдлари / тарж. З.Саидбобоев. – Тошкент, O‘zbekiston, 2019. – 338 б.

9. *Navoiy A.* Hayrat ul-abror (nasriy bayoni). – Toshkent: Yang asr avlodi, 2009. – 77 b.

10. *Ashirov A*. Etnologiya. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – 544 b.

11. Авесто. Тарихий-адабий мерос. / А. Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 393 б.

SOME CONSIDERATIONS ON THE CHARACTERISTICS OF THE NATIONAL IDENTITY OF THE UZBEKISTAN PEOPLE

Adhamjon A. Ashirov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Ijtimoiy fanlar – Scientific Bulletin. Series: Social Research. 2026. 3(95). 12-18.
[1]Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 100060, str. Shahrisabz narrow, 5 (Uzbekistan). E-mail: info@uzhistory.uz

Key words: Uzbeks, nation, identity, values, community, neighborhood, national values, rituals, traditions, family, upbringing, national pride, mentality.

The 21st century is recognized as a period of great changes in the history and national identity of the Uzbeks. In particular, the historical changes that began in the fall of 2016-the process of building a New Uzbekistan to put the nation on its feet, especially to deepen the understanding of national values and identity, to show that the Uzbeks are not only great in their past history but also in their present, and to put their value in its place-are being carried out under the leadership of our president.

Today, many practical works are being carried out not only in the glorious history of our homeland and people but also in the future of the nation. Especially since the day the President began work, effective work has been carried out to show that our nation is not only great in its past history but also in its present, and to put its value in its place. Most importantly, the Uzbek nation is being recognized by the world community. Undoubtedly, in this regard, the study of the national mental and ethnocultural characteristics of the Uzbeks is also of urgent importance.

If we look at the world community, we can see that the names associated with various nationalities, for example, “English nobility,” “German spirit,” “Russian character,” “French dignity and nobility,” and “Japanese will,” have become widely popular. In addition, expressions such as “Chinese cuisine,” “German car,” “Japanese miracle,” “Indian cinema,” and “Korean and Turkish TV series” are also widespread in the world.

The fact that our people originated from the Turks (Turkish militancy, courage, and honesty) is clearly reflected in the national character of such traits as tolerance, generosity, and self-reliance. This is especially reflected in the Uzbeks’ extreme devotion to weddings and celebrations, their enjoyment of collecting and distributing food throughout the years, their organized mourning and bereavement ceremonies, and the constant presence of the general public and residents of the neighborhood in all customs, from the birth of a child to mourning ceremonies. Also, aspects specific to the Turkic people in our national identity are clearly expressed in our spiritual culture, national games such as chillak, chavgon, kopkari, kurash, «beshtash,» «oshiq urush,» and «oshiq,» paintings, and customs such as «kuloqtishlar,» «beshikkerti,» «kalin,» and «to’qqiz,» as well as in the customs associated with the unique love for horses and the participation of this sacred creature in mourning ceremonies.

In Uzbekistan, all life activities were carried out by the mahalla in the city and by the village and aul communities in the countryside. The mahalla and village communities were headed by an aksakal (in Khorezm, yoshulli) elected at the community meeting. Social life was embodied in mosques, teahouses, and markets, which were mainly attended by men, and the community united residents of a particular mahalla or village.

References:

1. Ashirov A. (2025). O‘zbekchilik milliy iftixormi yoki taraqqiyotga to‘siq? [Is Uzbekism national pride or an obstacle to development?]. *Vatan*. 2025. No 1. Pp. 29-33.

2. Asqarov, A. (2023). *Qadimgi Turon eneolit, bronza, ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar* [Scenes from the history of ancient Turonian Eneolithic, Bronze and Early Iron Age civilizations]. Tashkent: Fan.

3. Shoniyozov, K (2001). O‘zbek xalqining shakllanishi jarayoni [The process of the formation Uzbek nation]. Tashkent: Shark.

4. Asqarov, A. (2015). *O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi* [The history of the origin of the Uzbek people]. Tashkent: O‘zbekiston.

5. Ashirov, A. (2004). O‘zbek milliy mentaliteti haqida ba’zi mulohazalar [Some thoughts on the Uzbek national mentality]. In:*‘O‘zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodolik yondoshuvlar, etnogenetik va etnik tarix’ mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy seminari materillari* [Materials of the Republican Scientific-Theoretical Seminar on the topic ‘The Origin of the Uzbek People: Scientific-Methodological Approaches, Ethnogenetics and History’]. Tashkent. Pp. 53-56.

6. Ishaqov, M. Unutilgan podsholikdan xatlar [Letters from forgotten kingdom]. Tashkent: Fan.

7. Buriyev, O., Saidov, B. (2012). Mahalla – milliy tarixiy institut [Mahalla – National Historical Institute]. Tashkent.

8. Skayler, Y. (2019). Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo‘qon, Buxoro va Guljaga sayohat qaydlari [Turkestan: Travel notes to Russian Turkestan, Kokand, Bukhara and Gulja]. Tashkent: O‘zbekiston.

9. Navoi, A. (2009) Hayrat ul-abror (nasriy bayoni) [Khayrat ul-abrar (a prose narrative)]. Tashkent: Yang asr avlodi.

10. Ashirov, A. (2014). *Etnologiya* [Ethnology]. Tashkent: Yangi nashr.

11. Mahkam, A. (Trans.by) (2001). Avesto. Tarixiy-adabiy meros [Avesta. Historical and literary heritage]. Tashkent: Shark.

Muallif haqida ma’lumot:

ASHIROV Adhamjon Azimboyevich – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti Etnologiya va antropologiya markazi boshlig‘i. E-mail: adjashirov@yandex.ru